

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

**Том 1, Выпуск 1, 30 сентября
PRAGMATIK JIHATDAN TARJIMA TURLARI**

Anjela Kuganova Alimardonovna

**Chirchiq davlat pedagogika universiteti Turizm fakulteti Xorijiy til va
adabiyoti: ingliz tili yo'nalihi 2-bosqich talabasi**

anjelakuganova325@gmail.com

+998950720329

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tarjimada pragmatik ma'noning tutgan o'rni hamda uning kommunikativ effekt hosil qilish imkoniyati retseptori haqida ma'lumotga ega bo'lasiz.

Kalit so'zlar: adekvatlik, ekvivalentlik, stilistik, pragmatik, kommunikativlik, retseptor, funksional turlari.

ABSTRACT

In this article, you will learn about the role of pragmatic meaning in translation and its potential to create a communicative effect.

Keywords: adequacy, equivalence, stylistic, pragmatic, communicative, receptor, functional types

Pragmatik jihatdan tarjima turlarida adekvatlik va ekvivalentlik tushunchalari

Adekvatlik va ekvivalentlik garchi bir – birlari bilan chambarchas bog'liq tushunchalar bo'lsa-da, V.A.Komissarov, A.D.Shveytsar ular aslo bir – birlariga teng emas deb hisoblaydilar.

Professor A.D.Shveytsar (1973) ozining "Tarjima nazariyasi" kitobida ularga quyidagicha izoh beradi: "Agar ekvivalentlik tarjima matniga mos keladimi y'oqmi degan savolga javob bersa, u xolda adekvatlik muayyan kommunikatsiya sharoitlarida ro'y berayotgan jarayon sifatida javob beradimi yo'qmi degan savolga javob beradi".

Adekvatlik bugungi kunda ham tarjima nazariyasi va amaliyotida eng asosiy tushunchalardan biri bo'lib qolmoqda. XX asr ortalarida zamonaviy tarjima nazariyasiga asos solgan ilmiy tadqiqotlarda adekvatlik tushunchasi asl matning ma'no va mazmun jihatdan toliq mos keladigan tarjima kontseptsiyasiga asoslangan edi. Ushbu kontseptsiya doirasida tarjima adekvatligi oz ichiga tarjima matnini tarjima tilining funksional-stilistik me'yorlariga toliq bo'ysindirish tamoyilini kiritgan, stilistik (uslubiy) ekvivalentligi bilan to'ldirilgan semantik (ma'noviy) va

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 1, Выпуск 1, 30 сентября

aniqlik kategoriyalari negizida korib chiqdilar edi. Shu kabi adekvatlik – semantik – stilistik (ma'noviy - uslubiy) hodisa deb ataladi.

XX asr oxirlariga kelib, tarjimonlik faoliyati informatsion amaliyot va kommunikatsiya nazariyasi sohasida yangi bosqichga kotarildi, bu esa tarjima adekvatligining funktional-pragmatik kontseptsiyasi shakllanishiga imkoniyat yaratdi. Budan buyon funktional-adekvat tarjimadan nafaqat tarjima tilining funktional stilistik me'yorlariga muvofiqlashtirilgan asliyat matnining asosiy kommunikativ vazifasini to'g'ri tarjima qilish talab etiladi, balki lingvistik tamoyillar asosida ularning pragmatik va kognitiv xususiyatlari ham oolib berilishi talab etiladi.

Har qanday matn qandaydir bir kommunikativ vazifani bajaradi: u yoki bu narsa haqida habar beradi, hissiy qiyinchiliklarni ifoda etadi, kommunikantlar ortasida aloqa o'rnatadi, suhbatdoshdan qandaydir bir aks sado yoki aks hatti – xarakatlar qilishni talab etadi.

Verbal muloqat chog'ida bunday maqsadlarni qo'yilishi berilayotgan xabar va uning tilda ifodasini belgilab beradi. Quyidagilarni qiyoslaylik: The rose is on the table (Na stole lejit roza, Stol ustida aturgul turibdi). What a beautiful rose! (Kakaya krasivaya roza! Qanday chiroyli atirgul!), Give me a rose, please (Day mne pojaluysta, rozu. Menga bitta atirgul ber, iltimos), Did you hear what I've said? (Ti shishal chto ya skazal? Mening aytganlarimni eshitdingizmi?).

Yuqorida gaplar tarkibidagi har bir so'z va strukturalar ma'nolari va xabarlarning konkret mazmunidan tashqari umumlashgan funktional mazmunni ham kuzatish mumkin: faktni konstatatsiya qilish, his-hayajon, chorlash (buyurish, iltimos qilish) va aloqa o'rnatish. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, bir vaqt ni o'zida matn bir qancha kommunikativ vazifalarni bajarib kelishi mumkin.

Yuqorida misol qilib keltirilgan gaplar o'zaro bog'langan har biri nutqiy kommunikatsiya faoliyati xosilasi sifatida kommunikativlilik xususiyatini yoqotmaydilar, shuningdek ular mazmunan funktional vazifalarga ham egalar.

Muloqot jarayonida matnning umumiyligi nutqiy funktsiyasini korsatuvchi matn mazmuniy qismi kommunikatsiya maqsadini tashkil etadi. U albatta mushohada orqali bilinadigan, yashirin tarzdagi mazmun emas, balki gapdagagi barcha so'zlar qo'shilib umumiyligi mazmunni tashkil etadi. Bu aslida qo'shimcha mazmundir.

Retseptor nafaqat til birliklari ma'nosi, ular o'rtasidagi bog'lanishni tushunishi, balki shu asnoda u gap umumiyligi mazmunidan zarur qo'shimcha axborotlarni xam farqlab olishi kerak boladi. Suhbatdosh nima demoqchi ekanligini farqlash kerak boladi.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 1, Выпуск 1, 30 сентября

Har qanday matn kommunikativlilik xususiyatiga ega boladi. Matnda asliyatdan retseptorga beriladigan ma'lumot mavjud boladi. Retseptor bu axborotni qabul qiladi va o'z ornida matnga nisbatan xususiy pragmatik munosabatlarga kirishadi. Ular turlicha bo'ladilar: Intellektual yoki retseptor uchun axborot tarzidagi fakt va voqealar sifatida matn namoyon boladi; yoki retseptor uchun ma'lumot ahamiyatli va ta'sirchan bolishi mumkin. Axborot uning his-hayajonini qo'zg'atish, u yoki bu xatti-xarakatlarga chorlashi mumkin.

Matnning bu kabi kommunikativ effekt hosil qilish imkoniyati retseptorda ma'lumotga nisbatan pragmatik munosabatni paydo qiladi.

Kommunikativ maqsad – muddaoasidan kelib chiqib matn tuzuvchi ma'lum ma'no va mazmunga ega, axborot tashuvchi til birliklarini tanlaydi. Tanlab olingan birliklar o'rtasida mazmuniy aloqalar mavjud boladi. Shu asnoda matn pragmatik xususiyat kasb etadi.

Matnning pragmatik potentsiali-mazmun va axborot formasi orqali reallashadi. “Retseptorlarning matnga nisbatan pragmatik munosabati, deb yozadi V.N.Komissarov” “Teoriya perevoda” nomli qo'llanmasida, nafaqat matn pragmatikasi, balki retseptorning shaxsiyati, fan bilimlari, hayotiy, tajribasi, ruhiy xolati va boshqalarga ham bog'liq bo'ladi (Komissarov 1990, 210).

Tarjima matnida ifodalangan xabarga nisbatan retseptorning pragmatik munosabatini tarjimon tomonidan tarjima matnini tuzishda qanday til ifoda vositalaridan foydalanganligiga ko'proq bog'liq bo'ladi. Asl matnda ko'zda tutilgan pragmatik maqsadni tarjima matni orqali berish va ko'zlangan ta'sirga erishish tarjima pragmatikasi deb ataladi.

Tarjimada ko'zlangan maqsadga erishishda tarjimon ikki til bilan ish ko'rарекан, u til egalari tarixi, madaniyati, adabiyoti, urf-odatdlari, hayot tarzi, xos so'zlar kabilar borasida fan bilimlarni puxta egallagan bolishi kerak boladi. Bu jarayonda tarjimon ham asl matndagi retseptori hisoblanadi. Bu jarayonda u pragmatik jihatdan xolis bolish, o'zining shaxsiy munosabatlarini tarjima sifatiga salbiy ta'sir etishidan o'zini saqlashi kerak bo'ladi.

Asl matn tarjimasini o'qib tushunishda o'quvchida etishmagan fon bilimlarni o'mini qoplash maqsadida tarjimon tarjima matniga kerakli qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritishi mumkin.

Bu xol odatda atoqli otlar, jugrofik nomlar, realiyalar borasida kuzatiladi. Masalan, Massachusetts, Oklahoma, Virginia, Alberta, Manitoba (Kanada), Middlesex, Surrey (Angliya) jugrofik nomlar tarjimasida “shtat, provintsiya, graflik” sozlari qoshilib yoziladi. Bu usul tashkilotlar, firmalar va nashiriyotlar

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 1, Выпуск 1, 30 сентября

nomlarini tarjima qilishda ham qo'llanadi: "The Sunday times" reports the president of Uzbekistan, payed official visits to South Korea, Russia and Turkey: "Sandey Tayms" gazetasining habar berishicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Janubiy Koreya, Rossiya va Turkiyaga rasmiy tashriflar qildi.

Tarjima matnn o'quvchiga o'qish va tushunish oson va qulay bo'lishi uchun matn ostiga maxsus ilovalar ham berib ketilishi uchraydi.

Masalan: "Ishonmagil do'stungga, somon tiqar po'stungga" Yolda keladurgonda yayov qochib yuz tashvishlar bilan O'rategaga keldi.

There is a Turkish proverb: "Trust not your friend: he will stuff your hide with straw: Along the way Qambarli managed to escape on foot make his way with great difficulty to Ura – Tyube

Ushbuga tarjimada quyidagi ilovani berish mumkin: The text belongs to "Baburnama" written by Z.Babur in the XVth century.

Tarjima jarayonida matnning pragmatik salohiyati ba'zi – bir qismlarni tushirib qoldirish orqali ham ifodalanishi mumkin. Bunda bu qismlar retseptor uchun notanish va noma'lum bo'ladi:

There were pills and medicine over the place, and everything smelled like Vick's Nose Drops.

Hammayoqni dori bosib ketgandi, hammayoqdan tomchi dori hidi anqirdi. Bu erda tomchi dori ishlab chiqaruvchi firma nomi "Vicks" tushirib qoldirilgan. Ayrim xollarda asliyat matndagi implitsit (yashirin) axborot tarjima matnida eksplitsit ifodalanishi ham mumkin: The prime minister spoke a few words from a window in Number 10. Bosh vazir oz rezidentsiyasi derazasidan bir necha sozlar aytди. Bu kabi tarjimalarda tarjimon bir emas, bir nechta retseptorlar salohiyatini inobatga olib ish koradi.

Tarjimaning pragmatik muammolari ko'pincha va bevosita original matn janri va retseptorlar tipiga bog'liq bo'ladi. Bunday matnlar ko'pincha ma'lum bir soha, fan tarmoqlari o'quv asoslari uchun tarjima qilinadi.

Asliyatdagi badiiy asarning pragmatikasini o'girishda tarjimonlar ko'proq qiyinchiliklarga uchraydilar. Badiiy asarlar ma'lum tilda, bu til ona tili bo'lgan, odamlar uchun yaratildi. Ular boshqa tillarga tarjima qilinganda tarjimonlar xalq tarixi bilan bog'liq voqeа, narsalarga duch keladilar, turli badiiy mushohadalar, hayot tarzi, urf – odatlar, realiyalarni uchratadilar. Retseptor matnni adekvat tarzda tushunishi uchun tarjimon bu jarayonda pragmatik farqlarga o'z to'g'rilashlarini kiritadi.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 1, Выпуск 1, 30 сентября

Pragmatik ma'no u yoki bu fan – texnika sohasi vakillari uchun yaratilgan matnlarda kam o'zgarishga uchraydi. Chunki ular fan bo'yicha fan ma'lumotlarga ega bo'ladilar. Bunday ma'lumotlar turli tillarda so'zlashuvchi olimlar tomonidan bir xil tushuniladi. Matnlarda asosan o'lchov birliklari, maxsus nomlash nomenklaturasi va firmalar nomlariga e'tibor qaratiladi.

Asliyatdagi matnning janr va stilistik xususiyatlariga ko'ra, tarjimaning ikkita funktksional turlari farqlanadi:

- 1) badiiy tarjima
- 2) informativ (maxsus) tarjima.

Badiiy tarjimaning vazifasi badiiy estetik va yoki poetik vazifa bo'lib, uning maqsadi, o'quvchiga estetik ta'sir korsatishdir. Informativ tarjimadan farqli o'laroq badiiy tarjimada erkinlik, mazmunni maksimal darajada ifoda etishdan chekinish xolatlari mavjud boladi.

Vazifasi u yoki bu ma'lumotlar haqida xabar berishdan iborat bo'lgan tarjima matnlari informativ tarjima deb ataladi. Bunday matnlar sirasiga ilmiy, ish yuritish, ijtimoiy – siyosiy, maishiy xususiyatga ega matnlar kiradi. Xususiyatlariga kora ular ilmiy – texnika materiallari tarjimasi, rasmiy – ish materiallari tarjimasi, siyosiy – publitsistik gazeta - axborot materiallari tarjimasi kabi turlarga ajratiladi.

Ilmiy – texnik stiliga xos xususiyatlar bu mantiqiylik izchillik, aniqlik, tushunarilik kabilardir. Bu stilga xos terminlar, ya'ni maxsus leksik birliklar mavjud. Bunday terminlarga bir ma'nolilik, aniq ifoda xos bolib ular emotsiyonallik, ifodalilik xususiyatlaridan yiroq turadi. Masalan, elektron lampalarning barcha turlari electrode deb nomlanib, elektrodlar soniga kora ular diode, triode, tetrode, pentode, hexode deb atalgan.

Pragmatik nuqtai nazardan tarjimaning quyidagi besh turini farqlash mumkin:

- 1) amaliy tarjima,
- 2) o'quv jarayonida amalga oshiriladigan tarjima,
- 3) namunaviy tarjima,
- 4) nashr etilgan tarjima,
- 5) eksperimental tarjima.

Amaliy tarjima sinxron, izchil (ogzaki) va yozma tarjimalarni o'z ichiga oladi. O'quv jarayonidagi tarjima tilning og'zaki, yozma ko'nikmalarini o'stirishga hizmat qiladi. Uni didaktik tarjima deb ham atash mumkin. Uning eng asosiy maqsadi til o'rganuvchilarni tarjimaga emas, chet tiliga o'rgatishdan, chet tilidagi matnni lug'atsiz tushunishga o'rgatishdan iborat. Rasmiy nashr etilgan har qanday tarjima

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 1, Выпуск 1, 30 сентября

matni nashr etilgan tarjima turiga kiradi. Ular sirasiga badiiy va informativ harakterdagi tarjima matnlari kiradi. Ular o'qish, ma'lumot olish, tanqidiy taxlil, taxlil ob'ekti sifatida qiyoslashga hizmat qiladilar.

Eksperimental tarjima asosan tarjimaga oid muammolarni tajribadan o'tkazib, sinab ma'lum ilmiy nazariy xulosalarga kelish bilan bog'liq tarjima turidir. Bu zamonaviy texnologiyalar yoki bevosita kuzatuv – taxlil asosida amalga oshiriladi.

REFERENCES

1. Literary translation and international relations of Uzbek literature. Samarkand, 1991.
2. Musayev Q. Foundations of translation theory T. 2005
3. Literature and culture of Uzbekistan. 1972.
4. March, M. "The Value of L 1> L2 Translation on Undergraduate Courses in Modem Languages". Proceedings of a Conference held at Hariot-Watt University. Edinburgh. 5-7 Jan.. 1986. In Translation in the Modem Languages Degree. edited by H. Keith and I. Mason 1987.
5. Nida, E. Toward a Science of Translation . Leiden, 1964.